

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11517576>

## TEMIR YO‘LLARI DAVLAT KADASTRI OBYEKTлари XATLOVI (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)

**Fayzullayeva Lobar Xayrulla qizi**

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti o‘qituvchisi

[lobarfayzullayeva@gmail.com](mailto:lobarfayzullayeva@gmail.com)

***Annotatsiya:** Maqolada temir yo‘llari davlat kadastrı obyektleri va ularni xatlovdan o‘tkazish maqsadlari bayon qilingan.*

***Kalit so‘zlar:** temir yo‘llari, soliq solish, xatlov, maxsus inshootlar, muxandislik kommunikatsiyasi, texnik xatlov, kadastr, yer uchastkasi.*

***Аннотация:** В статье описаны объекты государственного кадастра железных дорог и цели их учета.*

***Ключевые слова:** железные дороги, налогообложение, дорожная карта, специальные сооружения, инженерные коммуникации, техническая дорожная карта, кадастр, земельный участок.*

***Abstract:** The article describes the objects of the state cadastre of railways and the purposes of their registration.*

***Key words:** railways, taxation, road map, special structures, engineering communication, technical road map, cadastre, land plot.*

### 1. Kirish.

TYDK — bu temir yo‘llari obyektleri, ularning jug‘rofiy holati, huquqiy maqomi, qiymat va sifat tavsiflari va iqtisodiy baholash to‘g‘risidagi yangilanib turiladigan ishonchli axborot tizimi va temir yo‘llari har bir obyektining qiymatini belgilash, soliq solish, xususiylashtirish va boshqa maqsadlar uchun o‘tkaziladi hamda ularning tarkibi TYDKni yuritish bo‘yicha normativ hujjatlar bilan belgilanadi va ramiylashtiriladi.

Temir yo'llari obyektlariga tegishli bo'lgan, davlat yer kadastridan TYDKga berilayotgan yer uchastkalari to'g'risidagi yer-kadastr axborotida maqsadli foydalanilishi bo'yicha yerning tarkibi to'g'risidagi, yer uchastkalariga bo'lgan huquq davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi (shu jumladan yerdan foydalanishda servitutlarda belgilangan mavjud cheklashlar va taqiqlar to'g'risidagi ma'lumotlar), yerning qiymati va sifati to'g'risidagi ma'lumotlarni olish uchun har bir temir yo'lini va unga xizmat ko'rsatish va maxsus inshootlarni joyida xatlovdan o'tkazish talab etiladi. [1]

**Temir yo'llar davlat kadastr obyektlarini xatlov o'tkazishdan asosiy maqsad** – temir yo'llar va ularga xizmat ko'rsatish hamda maxsus inshootlarning xuquqiy, xo'jalik yuritish va qurilish maqomlariga ega bo'lgan xududdagi yer uchastkalari, binolar va inshootlar hamda yer osti muxandislik kommunikatsiyasi jihozlarining turlari, huquqiy hujjatlari, egallab turgan maydoni, umumiy uzunligi, qiymati, sifat jihatdan tarkibi, texnik holati, obodonlashtirish darajasi hamda ushbu ko'rsatkichlarning o'zgarishi to'g'risida ma'lumotlarni to'plashdan iboratdir. Davlat kadastrlari yagona tizimiga vakolatli organ tomonidan har yili aprel oyida hududdagi har bir temir yo'l obyektlarining xuquqiy, xo'jalik yuritish va qurilish maqomlari ko'rsatgichlari asosida taqdim etish uchun joyda texnik xatlov ishlarini temir yo'llari davlat kadastr obyektlarining turlari va qurilish tartiblarini inobatga olgan holda yangi tartib asosida o'tkazish maqsadga muvofiq bo'ladi.

## **2. Tadqiqot o'tkazish uslubiyati.**

Tadqiqotlarni bajarishda yer hisobini yuritish, monitoring qilish, topografik-geodezik dala o'lchash ishlari, masofadan zondlash kabi usullardan foydalanilgan.

Tajriba tahlil natijalari Respublikamizning janubiy mintaqasida joylashgan Qashqadaryo viloyatining temir yo'l stansiyalarida 2021-2024 yillar davomida olib borilgan.

## **3. Natijalar va munozaralar.**

Respublikamizda jami hududlar kesimida temir yo'llarning umumiy uzunligi 6 113,8 kilometrni tashkil etib, shundan 77,4% qismi ya'ni 4732,8 kilometr umumiy foydalanishdagi temir yo'llardir. Hududlar kesimida umumiy foydalaniladigan temir yo'llarning eng ko'p qismi Toshkent viloyatiga to'g'ri keladi (941,2 kilometr yoki temir yo'llarning 15,4% qismi)[2]. Tadqiqotlar natijasida ma'lum bo'ldiki Qashqadaryo viloyatidagi umumiy foydalanishdagi temir yo'llarning uzunligi 479 kilometrni tashkil etib, respublika miqyosidagi temir yo'llarning 7,8% qismini tashkil etadi. Viloyat hududidagi temir yo'llar to'g'risidagi ma'lumotlar quyidagi jadvalda keltirilgan.

## Qashqadaryo viloyati temir yo‘llari to‘g‘risidagi jamlanma ma‘lumotlar

1- jadval

No	Temir yo‘llarni ahamiyati bo‘yicha	Viloyat hududidan o‘tuvchi qismi (km)	Umumiy uzunligi (km)
<b>Birinchi darajali temir yo‘llar</b>			
1.	Kogon-Qarshi-Dushanbe	54	157
<b>Ikkinchi darajali temir yo‘llar</b>			
1.	Qarshi - Kitob	124	124
2.	Toshkent - Samarqand – Qarshi	41	144
3.	Toshg‘uzor – Boysun - Qumqo‘rg‘on	106,2	223
4.	Qarshi – Tallimarjon	36	-
5.	Jayron – Kengsoy	20	-
Jami umumiy foydalanishdagi temir yo‘llar		381	
<b>Xususiy temir yo‘llar</b> “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ tasarrufida bo‘lmagan temir yo‘llar		20	20
<b>Hammasi viloyat bo‘yicha</b>		<b>401</b>	



Qashqadaryo viloyati temir yo‘llarining joylashuv xarita sxemasi

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekioston Respublikasi “Temir yo‘llari davlat kadastrini yuritish tartibi to‘g‘risidagi NIZOM”
2. Railway.uz sayti
3. O‘zbekiston Respublikasining 1998-yil 28-avgustdagi “Davlat yer kadastrini to‘g‘risida” gi Qonuni
4. Mirzayev J.O. The Theoretical and Practical Significance of the Problems of Teaching Exact Sciences. Web of Semantics: Journal of Interdisciplinary Science. 2024/3/28.
5. Mirzayev J.O., Fayzullayeva L.X., Normamatov M.X., Geodezik tarmoqlarni yaratish. Research and education. 2024/2/28.
6. Mirzayev J.O., Shukrullayev S.D., Abdiraxmonov D.R., Insights into engineering work for future surveyors. World of Medicine: Journal of Biomedical Sciences. 2024/2/18
7. Mirzayev J.O., Abdiraxmatov N.A. Geodezik tadqiqotlar uchun zarur jihozlar tanlash. Research And Education. 2023/11/30 191-194 betlar.
8. Mirzayev J.O., Azatova M.M. O‘lchov aniqligini oshirish usullari. Research And Education. 2023/4/30 389-393 betlar.